



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI MÁMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASI
BUYRIG'I**

2022 jil. 09-Yanvar

№08

Nókis qalasi.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
2022 yil 26 dekabr kungi 358-sonli buyrug‘ining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2022 yil 26 dekabrda 358-sonli ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrda «Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi IIQ-447-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “**Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PF-269-son Farmoni bilan vazirlik, qo‘mita, agentlik va inspeksiyalarni o‘z ichiga oladigan **republika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yagona tizimi** belgilangani ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning hududiy bo‘linmalari mas‘uliyatini oshirish maqsadida **republika va mahalliy darajadagi bo‘g‘inlarning quyidagi funksional chegarasi** belgilanganligi;

2023-yil 1-yanvardan boshlab, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari **bir vaqtning o‘zida xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbari** vazifasini bajarishi **taqiqlanganligi;**

uyushma va boshqa xo‘jalik birlashmalariga **davlat hokimiyati vakolatlarini berish va ularning rahbarlarini Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan lavozimga tayinlash** amaliyoti **bekor qilinganligi** ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Embergenov) va Davlat aktivlarining reestrini yuritishni bo‘limi (Nietova) bilan birgalikda:

2023-yil 15-yanvarga qadar vazirlik va idoralar hamda ular tizimiga kiradigan tashkilotlarga tegishli bo‘lgan bo‘sh turgan binolar, inshootlar va yer maydonlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish;

2023-yil 20-yanvarga qadar vazirlik va idoralar hamda ular tizimiga kiradigan tashkilotlarga tegishli bo‘lgan bo‘sh turgan binolar, inshootlar va yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida vazirlik va idoralarning hududiy bo‘linmalarini bitta ma‘muriy binoga joylashtirish bo‘yicha taklif ishlab chiqib agentlikka taklif kiritilsin.

4. Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi (Jiemuratova) mazkur buyruq nusxasini Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Embergenov) va Davlat aktivlarining reestrini yuritishni bo'limi (Nietova)ga shaxsan yetkazilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig'i



M.Radjapov